

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2024.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

RUZMANOV DILSHOD USMANOVICH

**HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA
MADANIY-TARIXIY RESURSLARDAN SAMARALI
FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Ruzmanov Dilshod Usmanovich

Hududlarda turizm sohasini rivojlantirishda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish.....3

Рузманов Дилшод Усманович

Совершенствование методов эффективного использования культурно-исторических ресурсов в развитии туризма в регионах..... 25

Ruzmanov Dilshod Usmanovich

Improving methods of effective use of cultural and historical resources in the development of tourism in the regions 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.33/01.02.2024.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**«IPAK YO‘LI» TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

RUZMANOV DILSHOD USMANOVICH

**HUDUDLARDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA
MADANIY-TARIXIY RESURSLARDAN SAMARALI
FOYDALANISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/Iqt5621 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turdibekov Xasan Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Norchayev Asatullo Norbo'tayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduxamidov Sarvar Athamovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-oktabr soat 12-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan «Ipak yo'li» turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (38-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10-oktabr kuni tarqatildi
(2025-yil 10-oktabrdagi 38-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.M.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

B.Sh.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqalar o'rtasida turistik oqimlar uchun raqobat tobora kuchayib bormoqda, va mehmonlarni muvaffaqiyatli jalb etish ko'p jihatdan madaniy-tarixiy obyektlarning salohiyatidan qanchalik puxta va innovatsion tarzda foydalanilishiga bog'liqdir. Shu bilan birga, sayyohlar uchun qulaylik va qulay infratuzilmani ta'minlash hamda obyektlarning autentikligini asrab qolish o'rtasida muvozanatni topish masalasi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Grand View Research" va "Precedence Research" analitik kompaniyalari ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda barcha sayohatlarning 56 foizi aynan madaniy-tarixiy turizm bilan bog'liq bo'lgan"¹ bo'lib, "bozori 2024-yilda 709,3 mlrd AQSh dollariga baholangan, 2034-yilga kelib 1 418,4 mlrd AQSh dollarigacha o'sishi prognoz qilinmoqda"² Jahon amaliyotida madaniy-tarixiy turizmni barqaror rivojlanish bilan integratsiyalash tendensiyasi ortib bormoqda, bu esa resurslardan ekologik jihatdan oqilona foydalanishni, mahalliy hamjamiyatlarni jarayonga jalb etishni va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy foydalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu borada, madaniy-tarixiy resurslarni samarali boshqarishning yangi usullarini o'rganish va joriy etish nafaqat turistik yo'nalishlarning raqobatbardoshligini oshiradi, balki madaniy merosni global sivilizatsion identiklikning muhim qismi sifatida saqlab qolish asosida turizm sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish metodlarini takomillashtirish turizmni barqaror rivojlantirish va madaniy iqtisodiyot sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ilmiy ishlar innovatsion boshqaruv modellarini ishlab chiqish, madaniy merosni raqamlashtirish (virtual muzeylar yaratish, 3D-rekonstruksiyalar va onlayn-ekskursiyalar tashkil etish), madaniy marshrutlarni xalqaro turistik tarmoqlarga integratsiya qilish, madaniy-tarixiy turizmning mintaqaviy rivojlanishga ta'siri o'rganilmoqda, bunda uning yangi ish o'rinlari yaratish, kichik biznesni rag'batlantirish hamda nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylashdagi hissasi, madaniy-tarixiy turizm va madaniy obyektlarni muhofaza qilish zarurati o'rtasida muvozanatni topishga katta e'tibor qaratilmoqda. Dolzarb tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqalarda madaniy-tarixiy turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirish faqat ilmiy asoslangan yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va mahalliy hamjamiyatlarning faol ishtirokini uyg'unlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlar sifatida qaralmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqish, uni milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirish jarayonida madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish metodlarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. "Aslida, yurtimiz tarixi, madaniyati va tabiatiga asoslanib, sayyohlarni yana 2-3 karra ko'paytirish mumkin. Ayni paytda Milliy turizm yagona platformasi ishlab chiqilmoqda. Endi unga elektron viza berish, chipta olish jarayonlari ham ulanadi. Shuningdek, barcha tarixiy obidalarga kirish

¹ <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/heritage-tourism-market-report>

² <https://www.precedenceresearch.com/heritage-tourism-market>

imkonini beradigan “yagona turistik karta” joriy qilinadi. Bu ishlarga xususiy sektorni jalb etib, biznes loyiha qilib, madaniy meros obyektlarini ijaraga berishni takomillashtirish lozim³. Darhaqiqat, hududlarda jahon ahamiyatiga ega ko‘plab moddiy va nomoddiy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularni zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida turizm tizimiga integratsiya qilish iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, milliy o‘zlikni asrab-avaylash va xalqaro imidjni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarning bajarilishi, raqamli texnologiyalarni joriy etish, interaktiv muzeylar va virtual turizm loyihalarini kengaytirish, mahalliy hamjamiyatlarni faol jalb qilish, xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish hamda ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan boshqaruv modellarini tatbiq etish, turizm sohasi ko‘rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish va prognozlashtirish, madaniy merosni asrash va targ‘ib qilish bilan birga, hududiy turizmning raqobatbardoshligini ta‘minlash va xalqaro maydonda milliy turistik jozibadorligini yanada oshirish imkoniyatlarini chuqur tahlil etish va tegishli dasturlar ishlab chiqishga asos bo‘ladigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 18-iyuldagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martdagi 153-son “Davlat qo‘riqxonalarini va milliy tabiat bog‘i hududlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

³ <https://president.uz/oz/lists/view/8049>. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 9-aprel kuni “Turizm va investitsiya masalalari muhokamasi” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

⁴ <https://lex.uz> – Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiy adabiyotlarda hamda turizm sohasiga oid ilmiy ishlarda turizmining madaniy-tarixiy resurslarini rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlarini ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: G.Richards⁵, J.Wilson⁶, Richard George, Brian King⁷ A.Yu.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, Yu.A.Barzikin, N.I.Kabushkin, R.V.Kolotova, A.E.Saak, V.A.Kvartalnov⁸ va boshqa olimlar tomonidan yoritilgan.

Turizmning madaniy-tarixiy resurslarini tadqiq etishda mamlakatimiz olimlardan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.M.Pardayev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, A.T.Mirzayev, N.S.Ibragimov, B.H.To'rayev, X.I.Turdibekov⁹ kabi iqtisodchi olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Shu bilan birga, turizm sohasining rivojlanishi tendensiyalarining ayrim jihatlarini, shuningdek, turistik hududlarning turistik raqobatbardoshligini oshirish, hududlar turistik jozibadorligini oshirish, turizm sohasining ijtimoiy tarmoqlardagi faolligini oshirish kabi masalalarga keng to'xtalib o'tganlar. Biroq, yurtimizda turizmning madaniy-tarixiy resurslarini yanada rivojlantirish, madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy ishlar yetarli darajada emas.

⁵ <https://scholar.google.com/citations?hl=ru&user=6lkhTiYAAAAJ>

⁶ Greg Richards, Julie Wilson-“Today's youth travellers, tomorrows global nomads: New horizons in independent youth and student travel: A report for the International Student Travel Confederation (ISTC) and the Association of Tourism and Leisure Education (ATLAS)” International Student Travel Confederation, 2003.

⁷ Creating a scale for assessing socially sustainable tourism. H Qiu Zhang, DXF Fan, TSM Tse, B King - Journal of Sustainable Tourism, 2017

⁸ Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.– 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. -М.: Финансы и статистика, 2003. –176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное.– СПб.: «Издательский дом Герда», 2007. – 576 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. - М.: КНОРУС, 2006. -160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. -409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избр. произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; Саак А.Э., Пшеничных Ю.А. Менеджмент в социально-культурном сервисе и туризме. -СПб.: Питер, 2006. – 512 с.; Чудновский А.Д., Жукова М.А. Менеджмент в туризме и гостиничном хозяйстве. - М.:КНОРУС, 2005.– 320 с.; 698 с.; А.Б.Косолапов Туристское страноведение. Европа и Азия: учебно – практическое пособие. – 2-е изд., стер– М.2006-400с.

⁹ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013. -248 с.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос. Науч. Изд. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2006. -386 с.; Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. -Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. Samarqand: SamISI. 2015. – 271 b.; Eshtayev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). DSc. Dissertatsiya avtoreferati – Samarqand. 2019.-246 b.; B.Sh.Safarov Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. //Monografiya. -T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti. 2016. –148 b.; Pardayev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texnologiya, 2019. –248 b.; Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlarini: iqt.fan.dok. diss. avtoref. – S.: SamISI, 2019. -77 b.; Norchayev A.N. Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. DSc. Dissertatsiya avtoreferati-Toshkent. 2021.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –.68 b.; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. – 204 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; Turdibekov X.I.Turizm industriyasini barqaror strategik rivojlantirishda qo'llaniladigan usullar tahlili //“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ilmiy jurnali, 2025 yil aprel, maxsus son, 2025-yil.

Turizm sohasida ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etishga doir tadqiqotlarda tarixiy-madaniy turizmga oid destinatsiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga doir tadqiqotlarda yetarlicha o'rganilmaganligi, turizm sohasida tashkiliy-iqtisodiy mexanizmdan foydalanish samaradorligini oshirishda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish tizimini o'rganishni, turizm sohasida rivojlantirishni modellashtirish tizimini takomillashtirish hamda baholashni takomillashtirish mazkur mavzuning alohida dolzarbligini bildiradi. Mazkur ish doirasida mavzuga oid tegishli ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi hududlarda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

madaniy-tarixiy resurslar tushunchasi, turlari va ularning iqtisodiy mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan yoritish;

jahon turizm amaliyotida madaniy resurslardan foydalanish nazariyalari va modellarini tahlil qilish;

turistik destinatsiyalarda madaniy-tarixiy resurs salohiyati va turistik sig'imni baholash metodikasini takomillashtirish;

madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini tadqiq etish va takomillashtirish;

O'zbekiston hududlarida madaniy-tarixiy resurslardan foydalanish holatini statistik va qiyosiy tahlil qilish;

turistik obyektlar restavratsiyasi va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash;

hududlarning turistik salohiyati va tarixiy-madaniy resurslardan samarali foydalanishning prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqot predmeti hududlarda turizm sohasini rivojlantirishda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya-deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va taqqoslama tahlil, guruhlash, multirlikativ ta'sirini baholash, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va turistik oqimni oshirish maqsadida sayyohlar oqimi yuqori bo'lgan madaniy meros obyektlarida xatlov o'tkazish va ijaraga berilishi mumkin bo'lgan obyektlar ro'yxatini shakllantirish

asosida tarixiy-madaniy resurslar obyektini tadbirkorlik sub'ektlari bilan davlat-xususiy sherikchilik asosida foydalanishga berish "Leasing of a cultural heritage property" usuli bo'yicha taklif asoslangan;

turizm sohasiga oid barcha elektron tizim va platformalarni «Milliy turizm yagona platformasi» doirasida ishlab chiqish maqsadida sayyohlarga tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlari, muzeylar va tarixiy obidalarga kirish imkonini beradigan «O'zbekiston bo'ylab sayohat» kartasini joriy etish asosida tarixiy-madaniy resurslar obyektlarga kirish tizimiga ulash "Uzbek Museum Pass" modelidan foydalanish bo'yicha taklif asoslangan;

ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, observatoriyalar hamda planetariylar, Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi ilmiy turizm yangi turini joriy qilish asosida mahalliy va xorijiy turistlar uchun qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratish, turizm salohiyati yuqori hududlarda turistik xizmatlarni ko'paytirish asosida "Scientific tourism in Uzbekistan" turistik marshrutni yo'lga qo'yish, unga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilish bo'yicha takliflar asoslangan;

hududlarning turistik salohiyati va tarixiy-madaniy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2030 yilgacha bo'lgan o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xorazm, Samarqand va Buxoro viloyatlarida joylashgan yirik madaniy meros obyektlar ro'yxatini shakllantirish asosida madaniy meros obyektlarining me'moriy qiyofasi, turizm salohiyati va milliy qadriyatlarini o'zida ifoda etadigan targ'ibot namunalarini ishlab chiqish maqsadida targ'ibot mahsulotlarining dizayni namunalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash "The flagship cultural heritage site" takomillashtirilgan modelidan foydalanish bo'yicha takliflar dalillangan;

O'zbekistonning asosiy turistik markazlarida yuqori zichlikka duch kelayotgan turistlar oqimini boshqarish maqsadida turizmni markaziy shaharlardan tashqariga kengaytirish, hududiy turizmni faollashtirish va ikkinchi darajali destinatsiyalarni jozibador qilish maqsadida "Second-City Pass" tizimini joriy etish takliflari asoslangan;

madaniy-tarixiy resurslar restavratsiyasiga yo'naltirilgan investitsiyalar asosida turizm industriyasida multiplikativ samara beruvchi "Cultural Heritage Regeneration Economy Model" strategik iqtisodiy modeli ishlab chiqilgan; Turistik obyektlarda tashrifni raqamlashtirish, noqonuniy chipta savdosini cheklash va ijtimoiy zaif toifalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida yagona elektron chipta tizimini joriy etish asosida har bir chipta turistning shaxsiy ma'lumoti va QR-kodiga bog'langan holda beriladi, bu tizimda ikki bosqichli autentifikatsiyalash dalillangan;

turizm infratuzilmada ortiqcha zichlikni bartaraf etish uchun "SmartRoute AI" texnologiyasi orqali turistning qiziqishi, vaqt imkoniyati, jismoniy holati va kunlik oqim zichligini inobatga olgan holda individual marshrut tuzib berish amaliyoti asoslangan;

turistlarni barqaror xatti-harakatga ragʻbatlantirish uchun “GreenFoot Passport” raqamli platformasi yordamida har bir turistga ekologik mas’uliyatli faoliyat uchun (velosipedda sayohat, suvni tejash, plastiksiz ovqatlanish, mahalliy mahsulot sotib olish va h.k.) raqamli “ekoball” berishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tahlil jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining Turizm qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qumitasining rasmiy ma’lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma’lumotlaridan foydalanilganligi, mazkur ishda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, takliflar va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, hududlarda turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda takliflar Samarqand viloyatiga xorijiy va milliy turistlar oqimining va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda turizm o‘rnining oshishida, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududda turizm sohasida madaniy-tarixiy resurslaridan samarali foydalanish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish, sohaning jozibadorligini oshirish bo‘yicha takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi, shuningdek, 2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hududlarda turizm sohasini rivojlantirishda madaniy-tarixiy resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar asosida:

hududlarda turizm infratuzilmasini yaxshilash va turistik oqimni oshirish maqsadida sayyohlar oqimi yuqori bo‘lgan madaniy meros obyektlarida xatlov o‘tkazish va ijaraga berilishi mumkin bo‘lgan obyektlar ro‘yxatini shakllantirish asosida tarixiy-madaniy resurslar obyektini tadbirkorlik sub’ektlari bilan davlat-xususiy sherikchilik asosida foydalanishga berish “Leasing of a cultural heritage property” usuli bo‘yicha asoslangan taklif 2025 yil 15 maydagi PF-87-son “Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ‘ibot ishlarini kengaytirish” bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 12-sentabrdagi 03-10-17/9293-son ma’lumotnomasi). Natijada turistik xizmatlar hajmini 15%ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

turizm sohasiga oid barcha elektron tizim va platformalarni «Milliy turizm yagona platformasi» doirasida ishlab chiqish maqsadida sayyohlarga tashrif buyuradigan madaniy meros obyektlari, muzeylar va tarixiy obidalarga kirish imkonini beradigan «O‘zbekiston bo‘ylab sayohat» kartasini joriy etish asosida tarixiy-madaniy resurslar obyektlarga kirish tizimiga ulash “Uzbek Museum Pass” modelidan fodalanish bo‘yicha asoslangan taklif 2025 yil 15 maydagi PF-87-son “Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ‘ibot ishlarini kengaytirish” bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 12-sentabrdagi 03-10-17/9293-son ma’lumotnomasi). Natijada tarixiy-madaniy resurs obyektlarida xizmat ko‘rsatish samaradorligini 12%ga oshirish imkoniyati dalillangan;

ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, observatoriyalar hamda planetariylar, Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi ilmiy turizm yangi turini joriy qilish asosida mahalliy va xorijiy turistlar uchun qo‘shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratish, turizm salohiyati yuqori hududlarda turistik xizmatlarni ko‘paytirish asosida “Scientific tourism in Uzbekistan” turistik marshrutni yo‘lga qo‘yish, unga mahalliy va xorijiy turistlarni jalb qilish bo‘yicha asoslangan takliflar 2024-yil 18-sentabrdagi 582-son “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi dasturiga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 12-sentabrdagi 03-10-17/9293-son ma’lumotnomasi). Natijada turistik obyektlarida yangi turdagi xizmat ko‘rsatish afzalliklari asoslangan;

hududlarning turistik salohiyati va tarixiy-madaniy resurslardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarning prognoz hisob-kitoblari asosida 2030 yilgacha bo‘lgan o‘rta muddatli prognoz parametrlarini qo‘llash bo‘yicha amaliy tavsiyalar Turizm qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan «2025-2030 yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o‘rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar» dasturi va «Yo‘l xaritalari»ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2025-yil 12-sentabrdagi 03-10-17/9293-son ma’lumotnomasi). Natijada kelgusi yillarda turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining o‘shish ko‘rsatkichlari prognozi natijalariga ko‘ra 2030-yilga borib turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi 12%ga oshishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini

chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obykti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Hududlarda turizmning madaniy-tarixiy resurslarini samarali rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Turizm sohasi global iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi, chunki u mamlakatlarga valyuta tushumi, ish o'rinlari, madaniy merosni targ'ib qilish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi¹⁰. Shu bilan birga, madaniy-tarixiy resurslar turizm rivojida aynan nima uchun asosiy drayverlardan biri ekanligini tushuntirib berish lozim. Tarixiy obidalar, arxeologik yodgorliklar, milliy an'analar va etno-madaniy tamoyillar turistlar uchun jozibador jihatga ega bo'lib, ularni jalb etish vositasi sifatida samara beradi¹¹. Madaniy-tarixiy resurslar o'zida tarixiy xotirani saqlagan bo'lib, ilmiy-ma'rifiy ko'rinishda ham muhim manba hisoblanadi. Turistlar bu resurslardan tarix, an'ana, etnografiya, me'moriy yutuqlar bilan tanishuv orqali noyob taassurotlarga erishadi. Eng muhimi, bu hol mamlakat brend imidjini shakllantirishi, mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin¹².

Turizmga madaniy-tarixiy resurslardan foydalanish yo'nalishi ilmiy doirada keng muhokama qilinadi. Hall ta'kidlaganidek, madaniy meros turistlar uchun eng yirik “magnit” rolini o'ynaydi, chunki ular shaxsiy taassurotlar orqali xorijiy madaniyat bilan tanishadi¹³. Yana bir tadqiqotda tarixiy obyektlarni qayta ta'mirlash va aslligini saqlash barqaror turizm uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlanadi¹⁴.

Buhalis va Darcy madaniy meros obyektlarining infratuzilma bilan uyg'unlashuvi ularni imkoniyati cheklangan turistlar uchun ham jozibador qilishini qayd etadi. A.Qirg'izboev esa Markaziy Osiyo meros obyektlari zamonaviy talablarga mos ravishda raqamlashtirilayotganini, bu esa sayohatchi uchun qulaylik yaratishini aks ettiradi¹⁵.

¹⁰ Buhalis D., & Darcy S. Accessible Tourism: Concepts and Issues. Channel View Publications. -2019

¹¹ Hall, C. M. . Tourism and Heritage. Routledge.-2020

¹² Harrison, R. Heritage: Critical Approaches. Routledge.-2021.

¹³ Qirg'izboev, A. Digitalization of Central Asian Cultural Heritage for Tourism Development. Central Asia Tourism Journal, 5(1), 33–45. - 2022

¹⁴ Schuler, D. Community engagement in cultural heritage management. Journal of Heritage Management, 7(2), 112–125.-2021

¹⁵ UNESCO (2020). Sustainable Tourism and Heritage Preservation. [Online Resource].

Schuler madaniy meros menejmentida mahalliy aholi ishtirokining ahamiyatini ajrati ko'rsatgan¹⁶. Xu esa tarixiy resurslarning iqtisodiy tomonini ko'tarib, gigant sarmoyalar turizmga to'g'ridan-to'g'ri foyda olib kelishi, biroq madaniy merosni tijoratlashtirishdan ehtiyot bo'lish lozimligini ta'kidlaydi¹⁷.

Yuqoridagi adabiyotlar madaniy-tarixiy resurslarning turizmdagi roli ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi: ular iqtisodiy, madaniy, ta'limiy, ijtimoiy samaralar berishi mumkin. Biroq bu resurslarning haqiqiy qiymatini yo'qotmasdan, aslligini saqlab qolgan holda rivojlantirish tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, madaniy-tarixiy resurslardan to'g'ri foydalanilmasa, ular yo eskirib qolishi yoki aslligini yo'qotishi mumkin. Barqaror turizm tamoyili bilan chambarchas bog'liq holda, madaniy meros meros bo'lib qolishi uchun mahalliy jamoa ishtirokining ahamiyati ortib boradi. Tijoratlashtirish ham chegarada amalga oshirilsa, iqtisodiy yutuq bilan birgalikda ma'naviy-tarixiy qiymatlar saqlanib qoladi.

Dissertatsiyaning **“Turizmning madaniy-tarixiy resurslarini samarali rivojlantirish holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida hududlarda turizmni samarali rivojlantirish tendensiyalari va holatining tahlili, Samarqand viloyatida turizm sohasining samarali rivojlantirish holati va tahlili hamda turizm infratuzilmasini yaratish va modernizatsiya qilish strategiyasini takomillashtirish tadqiq etildi.

Samarqandda tarixiy binolar (36), muzeylar (16), arxeologik joylar (8) – jami 60 ta madaniy meros obyekti. Bu ko'rsatkich 2024-yilga (58 ta) nisbatan biroz oshgan, sababi restavratsiyadan keyin rasman ro'yxatga kiritilgan bir necha yangi obyektlar mavjud. Buxoro (54 ta), Xorazm (41 ta) jami madaniy meros soni bo'yicha an'anaviy yuqori ko'rsatkichlarga ega. Toshkent shahrida esa 82 ta bilan peshqadamligicha qolgan, chunki poytaxtda ko'plab muzeylar mavjud (1-jadval).

1-jadval

2024 yilda O'zbekiston Respublikasi hududlari kesimida tarixiy binolar, muzeylar, arxeologik joylar tasnifi

Viloyat	Tarixiy binolar	Muzeylar	Arxeologik joylar	Jami madaniy meros
Toshkent	21	19	6	46
Samarqand	36	16	8	60
Buxoro	29	16	9	54
Xorazm	26	10	5	41
Qashqadaryo	15	8	8	31
Navoiy	11	7	9	27
Farg'ona	18	13	7	38
Andijon	17	11	8	36
Namangan	16	10	8	34
Sirdaryo	9	10	4	23
Jizzax	10	7	8	25
Surxondaryo	13	7	9	29
Toshkent sh.	37	35	10	82

¹⁶ Xu, F. (2019). The role of virtual tours in cultural tourism marketing. Journal of Destination Marketing & Management, 12(3), 64–72.

¹⁷ ICOMOS (2023). Principles for the Conservation of Heritage Sites. ICOMOS Publication.

Shunday qilib, 2023–2024-yillar davrida madaniy-tarixiy resurslardan foydalanish bo‘yicha viloyatlar kesimida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Restavratsiya ishlari, infratuzilma loyihalari, raqamli texnologiyalarni joriy etish, festivallar tashkil etish, kadrlar tayyorlash kabi omillar turizm mahsulotlarining sifati va jozibadorligini oshirib, iqtisodiy o‘shish va mahalliy aholi farovonligida sezilarli natija berayotgani ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, viloyatlarning teng taraqqiyot etishi uchun kamroq rivojlangan hududlarda ham madaniy meros asosida turizm salohiyatini rivojlantirish ishlarini kuchaytirish zarur. Madaniy-tarixiy merosni muhofaza qilish hamda undan turizmga samarali foydalanish natijasida, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uyg‘unligini ta’minlash mumkin.

SWOT tahlili (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) madaniy-tarixiy resurslar asosida turizm rivojida qanday muammolar borligini va imkoniyatlar nimalardan iborat ekanini aniqlaydi. Quyida shu tahlil uchun asosan kerak bo‘ladigan dastlabki ko‘rsatkichlar keltirilgan (2-jadval).

2-jadval

SWOT tahlili uchun asosiy ko‘rsatkichlar¹⁸

Guruh	Ko‘rsatkich/Tavsif	2023–2024 ko‘rsatkichlari
Strengths	UNESCO ro‘yxatidagi obyektlar, tarixiy meros xazinasi	10 obyekt, kelgusida yana 5 tasini kiritish rejasi
Weaknesses	Mexmonxona xizmat sifati, personal malakasi, over-restavratsiya	25% turistlar "yomon" baholagan, 15% obyektida restavratsiya kamchiligi
Opportunities	Ekoturizm bilan uyg‘unlash, ziyorat turizmi rivoji, VR/AR imkoniyatlari	2023: 40 ta xo‘jalik ekoturizm, 210 ta VR/AR obyekt
Threats	Geosiyosiy beqarorlik, pandemiya qaytishi, mavsumiylik	2023-yilda hamon aviabilet qiymatlari yuqori, soha mavsumiy Risk

Kuchli tomon (Strength): UNESCO ro‘yxatida 10 ta obyekt bor, yana 5 tasini kiritish harakatlari ketmoqda. Bu xalqaro e‘tirofdir. Kuchsiz tomon (Weakness): Turistlardan 25% "yomon" baholash, restavratsiya kamchiligi (15% obyektida) vaziyatni ko‘rsatadi. Imkoniyatlar (Opportunities): Ekoturizm, ziyorat turizmi, VR/AR texnologiyalari bilan turizm xalqaro darajaga chiqishi mumkin. Taxdidlar (Threats): Geosiyosiy holatlar, pandemiya kabi omillar turizmni juda oson zararlashтира oladi.

O‘zbekistondagi barcha elektron tizim va platformalarni «Milliy turizm yagona platformasi» (MTYP) doirasida birlashtirish – turistik xizmatlarni raqamlashtirish va moslashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Shu doirada joriy etiladigan “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” kartasi (Uzbek Museum Pass) madaniy meros obyektlari, muzeylar va tarixiy yodgorliklarga yagona elektron kirish tizimini yo‘lga qo‘yadi. Bu karta milliy turizmning raqamli ekotizimiga ulanib, bir vaqtning o‘zida turizm infratuzilmasini yaxshilaydi, turistlar uchun qulaylik yaratadi, davlat budjetiga qo‘shimcha daromad keltiradi, mahalliy tadbirkorlik sub’ektlari bilan davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarini rivojlantiradi.

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

3-jadval**Yagona integrallashgan kartalarni joriy etishning xorij tajribasi¹⁹**

Mamlakat	Model nomi	Asosiy xususiyatlar	O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari
Fransiya	Paris Museum Pass	50 dan ortiq muzey va yodgorliklarga yagona abonement	Samarqand, Buxoro, Xivada integratsiya qilingan kirish tizimi joriy etilishi mumkin
Italiya	Roma Pass	Transport va muzey xizmatlari integratsiya qilingan	O‘zbekistonda ham “Uzbek Museum Pass” transport kartasi bilan uyg‘un qilinadi
Turkiya	Museum Card Turkey	Madaniy meros obyektlariga arzonlashtirilgan kirish	O‘zbekistonda ichki va xorijiy sayyohlar uchun ikki turda (Standard, Premium) kartalar joriy etiladi
Yaponiya	Japan Rail + Museum Tickets	Yirik logistika kompaniyalari bilan hamkorlik	Uzbekistan Airways va Uzbekistan Railways (Afrasiyob) bilan uyg‘unlashtirish imkoni mavjud

Xorijiy modellardan ko‘rinib turibdiki, Uzbek Museum Passni transport va mehmonxona xizmatlari bilan integratsiya qilish strategik samaradorlikni oshiradi. Uzbek Museum Pass – O‘zbekiston turizm infratuzilmasini raqamlashtirish, turistlar uchun qulaylik yaratish va madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish uchun innovatsion yechim hisoblanadi.


4-jadval**“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat” kartasi (Uzbek Museum Pass)ning ustuvor yo‘nalishlari²⁰**

№	Yo‘nalish	Amaliy mexanizm	Kutilgan natija
1	Milliy turizm yagona platformasi	Barcha muzey va obyektlarni yagona bazaga ulash	Bir xil tarif siyosati va shaffof hisobot
2	“Uzbek Museum Pass” kartasi	Elektron va QR-kodli abonement	Turistlar uchun qulaylik va vaqt tejilishi
3	Davlat-xususiy sherikchilik	Bilet sotuvidan olingan daromadni taqsimlash	Xususiy sektorda qiziqishning o‘sishi
4	Marketing va reklama	Xalqaro turistik saytlarda reklama	Xorijiy sayyohlar oqimining ko‘payishi
5	Integratsiya	Transport, mehmonxona va gid xizmatlari bilan uyg‘unlashtirish	Kompleks turistik mahsulot shakllanishi

Iqtisodiy jihatdan yagona karta sotuvi orqali valyuta tushumi oshadi, chiptalardagi naqd pul aylanmasi qisqaradi. Ijtimoiy jihatdan turistlar uchun qulaylik va shaffoflik, mahalliy aholi uchun arzonlashtirilgan tariflar taklif etiladi. Innovatsion jihatdan QR-kod, NFC va mobil ilovalar orqali kirish tizimi joriy etilishi raqamli turizm rivojiga turtki bo‘ladi. Xorij tajribasiga asosan Parij va Rim tajribasi ko‘rsatganidek, transport bilan integratsiya qilish turist oqimini yanada oshiradi.

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



1-rasm. Uzbek Museum Pass integratsiya modeli tuzilishi²¹

Hududlarda sayyohlar oqimini oshirish hamda turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun yuqori turistik oqimga ega madaniy meros obyektlarini xatlovdan oʻtkazish, ulardan qaysi qismi tadbirkorlik subyektlariga ijaraga berish mumkinligini aniqlash zarur. Bu jarayon davlat-xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilishi kerak.

5-jadval

Hududlarda sayyohlar oqimini oshirish va turizm infratuzilmasini yaxshilash uchun yuqori turistik oqimga ega madaniy meros obyektlarini tadbirkorlik sub'ektlariga ijaraga berish²²

№	Obyekt turi	Foydalanish usuli	Tadbirkorlik imkoniyati	Kutilgan natija
1	Arxitektura yodgorligi	Ijaraga berish va ta'mirlash sharti bilan restoran/choyxona yoki hunarmandchilik markazi	Turistik servisini diversifikatsiya qilish	Turistlar vaqtini uzaytirish, ish o'rinlari
2	Muzey yodgorligi	Xususiy tashabbuschilar bilan zamonaviy interaktiv ekspozitsiya	AR/VR texnologiyalar, turizm texnoparki	Yoshlar uchun ta'limiy turizm
3	Karvonsaroy yoki bozor xarobalari	Yarmarkalar va festivallar uchun qayta tiklash	Xalqaro savdo festivallari	Milliy brend rivojlanishi
4	Qadimiy uy-joy me'morchiligi	Guest-house sifatida restavratsiya	Turistik turar-joy sonini oshirish	Airbnb/Booking orqali daromad
5	Arxeologik maydonlar	Open-air museum tashkil etish	Gid xizmatlari, kirish tizimi	Budjetga tushum

²¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, madaniy meros obyektlarini turli yo'nalishlarda tadbirkorlik sub'ektlariga berish iqtisodiy, ijtimoiy va angan va nazorat mexanizmi mavjud. Bu esa madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanishni kafolatlaydi. Xorijiy tajriba bilan solishtirma tahlilga ko'ra quydagi holatlar aniqlandi:


- Ispaniya. Karvonsaroy va qasrlar restoran va mehmonxona sifatida qayta tiklangan.

- Turkiya. Qadimiy uy-joylar guest-house sifatida foydalanilmoqda, mahalliy iqtisodiyotga 25% qo'shimcha daromad.

- Italiya. Multi-funksional model – pastki qavat muzey, yuqori qavat mehmonxona.

- O'zbekiston uchun tajriba. Ispaniyadan – hunarmandchilik integratsiyasi; Turkiyadan – guest-house tizimi; Italiyadan – multi-functional leasing qo'llash mumkin.

2-rasm tahlili madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Iqtisodiy hisob-kitoblar bu jarayonning moliyaviy jihatdan maqbulligini tasdiqlaydi. Normativ-huquqiy asoslar va xorijiy tajribalar esa O'zbekiston uchun ustuvor yo'l xaritasini belgilab beradi.



2-rasm. Madaniy meros obyektlarini ijaraga berish jarayoni bosqichlari²³

²³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Dissertatsiyaning «**Turizmning madaniy-tarixiy resurslarini samarali rivojlantirish istiqbollari**» deb nomlangan uchinchi bobida hududlarda turizm sohasini samarali rivojlantirishning multiplikativ samarasining modellari, turizm sohasini samarali rivojlantirish asosida turizm va madaniy meros sohasini ommalashtirish usullarini takomillashtirish hamda turizmni samarali rivojlantirishda istiqbol parametrlarini hisoblash modellari bo'yicha takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Turistik va rekreatsion faoliyat jarayonida eng ko'p jalb etiladigan obyektlar – tabiat va madaniyat yodgorliklaridir. Yuqoridagi ta'riflar asosida madaniy yodgorliklar shartli ravishda besh guruhga ajratiladi:

1. Arxeologik obidalar - qadimiy manzilgohlar, diniy majmualar, istehkomlar, qadimiy yo'llar, qoyatosh rasmlari, tarixiy ashyolar va boshqalar.

2. Tarixiy obidalar - tarixiy voqealar, fan-texnika rivoji, madaniyat hamda turmush tarzi va turli atoqli shaxslar hayoti bilan bog'liq binolar, yodgorliklar va boshqa obyektlar.

3. Arxitektura yodgorliklari - arxitektura ansambllari, shaharsozlik merosi, fuqarolik, sanoat, harbiy yoki diniy me'morchilik namunalari, monumental, tasviriy hamda dekorativ-amaliy san'at asarlari bilan boyitilgan binolar.

4. San'at yodgorliklari - tasviriy va amaliy dekorativ san'at, monumental rangtasvir, haykaltaroshlik va shu kabi asarlar.

5. Madaniy meros yodgorliklari - tarixiy voqea yoki shaxs xotirasi uchun yaratilgan yodgorliklar, piramidalar, maqbaralar, ibodatxonalar, memorial muzeylar va boshqalar.

Moddiy tomonidan turizm bozoridagi raqobat, sayyohlarning ortib borayotgan talabi va zamonaviy turizm trendlari madaniy merosga qiziqishni kuchaytirishi mumkin. Mamlakatimizda bu jarayonda boshqa omillar ham muhim ahamiyatga ega: me'yoriy-huquqiy baza, mahalliy muhandislik infratuzilmasi, mahalliy aholi bilan ishlash, tashqi sarmoya jalb qilish mexanizmlari. Shunday ekan, metodologik asosda tarixiy resurslardan foydalanishda "samaradorlik + muhofaza" tamoyili ustuvor sanaladi. Birinchi navbatda uchta bosqichni aniqlash mumkin: reyestr yaratish, holatni baholash, investitsiya dasturini ishlab chiqish.

Bo'lib o'tayotgan islohotlar zamirida nafaqat iqtisodiy manfaat, balki madaniy merosni saqlanishini ta'minlash maqsadi ham mujassam. Shu sababli, tarixiy resurslarni samarali boshqarishda ilmiy, texnologik va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash kerak bo'ladi.

Tarixiy yodgorliklardan foydalanishda asosiy metodologiya to'rtta asosiy elementdan iborat:

- Tashkiliy-boshqaruvviy yo'nalish (davlat siyosat, xususiy sektor, mahalliy aholi),
- Iqtisodiy-moliyaviy yo'nalish (sarmoya, grant, PPP, kraudfanding),
- Texnologik-sifrovoy yo'nalish (AR/VR, veb-portal, audiogid, internet-marketing),
- Reklamashtirish-marketing (brendlash, sotsiotarmoqlar, turoperatorlar bilan hamkorlik).

Bu elementlar bir vaqtda o'sib borishi lozim, aks holda integratsiya bajarilmaydi.

Tarixiy resurslardan foydalanish – ko'p shoxobchali jarayon bo'lib, unda davlat, xususiy biznes, mahalliy aholi, xalqaro tashkilotlar ishtirok etadi. Innovatsion iqtisodiy modellardan biri sifatida Davlat-xususiy sherikchiligi, kraudfanding, grantlar bilan birga xususiy sarmoya jalb etish maqsadi BoFocus-Group Reni zamonaviy jamoatchilik muhokamasi, ekspertlar baholashi va chuqur marketing tahlili talab etiladi.

Innovatsion usullardan biri – madaniy meros obyektini “adopt-a-monument” shaklida bir korxonaga yoki fond “vasiy” sifatida qabul qilishi. Bu shaklda obyektning saqlash, ta'mirlash xarajatlari belgilangan davr mobaynida tegishli tashkilot zimmasiga tushadi, evaziga ular madaniy obyekt atrofida har xil iqtisodiy faoliyat (suvenir do'konlari, kafe, ko'rgazma, konferensiyalar)ni tashkil etish vakolati olishadi.

“Scientific Tourism in Uzbekistan” turini yo'lga qo'yish – mahalliy va xorijiy turistlarga ilmiy-tadqiqot institutlari, laboratoriyalar, observatoriyalar va planetariylar, shuningdek, Fanlar akademiyasi tizimidagi markazlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkonini beradi. Bu turizm turi mamlakatimizning ilmiy salohiyatini targ'ib qilish, yoshlar uchun ilhom manbai yaratish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishni ko'zlaydi. Bu taklif turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish: madaniy, ziyorat va gastronomik turizmdan tashqari, fan va innovatsiyani qamrab olishga qaratilgan.

Talabalar va yosh olimlarni jalb qilish. ya'ni akademik turlar, ta'limiy master-klasslar va ochiq ma'ruzalar o'tkazish tajribasi naarda tutiladi. Natijada xrijiy hamkorlik: ilmiy turizm orqali xalqaro laboratoriyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish imkoniyati vujudga keladi. Bunda ilmiy merosni namoyish etish: Ibn Sino, Ulug'bek observatoriyasi, al-Farg'oniy merosi kabi tarixiy yo'nalishlarni zamonaviy fan bilan uyg'unlashtirish lozim bo'ladi.

